

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“FERMER XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISHLAR VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi **Qonuniga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 86-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 5, 89-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda) o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (**ilova** qilinadi).

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2004-yil 26-avgust,
662-II-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

FERMER XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDA

(yangi tahriri)

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunchilik

Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

*(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli **Qonuni** tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

3-modda. Fermer xo‘jaligi

Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

*(3-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli **Qonuni** tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyektidir.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligidir.

*(3-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli **Qonuni** tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reyestri O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan yuritiladi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reyestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

*(3-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli **Qonuni** tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*

4-modda. Fermer xo'jaligining boshlig'i

Fermer xo'jaligining boshlig'i shu xo'jalikning muassisi — fermerdir. O'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi fermer bo'lishi mumkin.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ana shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi.

(4-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 9-oktabrdagi O'RQ-973-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/973/0800-son)

II. FERMER XO'JALIGINI TASHKIL ETISH

5-modda. Fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari

Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda va zaxira yerlarda tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi bilan belgilanadi.

(5-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

(5-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Yer uchastkalari berilganda fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o'rtacha yillik hosil hisobida) qonunchilikda belgilangan normativ hosildorlikdan kam bo'lmashligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo'yiladi.

(5-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6-modda. Fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi

Fermer xo'jaligi shu xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi, u fermer xo'jaligiga tegishlicha alohida mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaligi tashkil etish uchun uning boshlig'i ushbu Qonunning 11-moddasida belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak.

(6-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

7-modda. Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish

(7-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Fermer xo'jaligi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin tashkil etilgan deb hisoblanadi hamda uning muassisi yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida shartnoma tuzadi. Fermer xo'jaligi bank muassasasida hisob-kitob varag'i va boshqa xil hisobvaraqlar ochishga, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'lishga haqli.

(7-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo'jaligi tashkil etishning ushbu Qonunda belgilangan tartibi buzilgan yoki xo'jalikning ustavi qonunga muvofiq bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish rad etilishi mumkin.

Davlat ro'yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek ro'yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

8-modda. Fermer xo'jaligining ustavi

Fermer xo'jaligi ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Fermer xo'jaligining namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

9-modda. Fermer xo'jaligi ustavining mazmuni

Fermer xo'jaligining ustavida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

fermer xo‘jaligining nomi;
fermer xo‘jaligi boshlig‘ining familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
fermer xo‘jaligining joylashgan yeri to‘g‘risidagi ma’lumotlar va pochta manzili;
fermer xo‘jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari;
ustav fondining miqdori.

Fermer xo‘jaligining ustavida qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa qoidalar ham bo‘lishi mumkin.

(9-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

III. FERMER XO‘JALIKLARI YURITISH UCHUN YER UCHASTKALARI BERISH. YERDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE‘MOLI

(III bo‘limning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 25-dekabrda O‘RQ-240-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009-y., 52-son, 555-modda)

10-modda. Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun beriladigan yer uchastkalari

Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari:

zaxira yerlardan;

yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan;

(10-moddaning birinchi qismi to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

(10-moddaning birinchi qismi beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Ilmiy-tadqiqot muassasalari, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarining yerlari, shuningdek suv fondi yerlari fermer xo‘jaliklariga berilishi mumkin emas.

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrdagi O‘RQ-957-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son)

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi, katta va kichik daryolar, suv havzalari bo‘ylab joylashgan yer uchastkalari fermer xo‘jaligi yuritish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bo‘ylab besh yuz metrli mintaqada faoliyati hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog‘lari hamda vivariylarning hayvonlarini va boshqa jonivorlarni) ko‘paytirish, o‘tlatish va boqish bilan bog‘liq bo‘lgan chorvachilik, parrandachilik hamda boshqa yo‘nalishdagi fermer xo‘jaliklariga yer uchastkalari berish taqiqlanadi.

(10-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

11-modda. Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish tartibi

Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari elektron onlayn-auksion asosida o‘ttiz yil muddatga ijaraga beriladi.

(11-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 9-oktabrdagi O‘RQ-973-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/973/0800-son)

Fermer xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkasini olishda fermer xo‘jaligi tashkil etilayotgan joyda yashovchi shaxslar boshqa teng shartlarda ustun huquqdan foydalanadi.

(11-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 21-dekabrda O‘RQ-506-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2018-y., 03/18/506/2356-son)

(11-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O‘RQ-775-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi elektron onlayn-auksion g'olibi va tuman hokimi o'rtasida bir ish kuni ichida imzolanadi.

(11-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 9-oktabrdagi O'RQ-973-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/973/0800-son)

(11-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari olgan va qishloq aholi punktida turarjoyi bo'lgan shaxslarning tomorqa yer uchastkasi saqlanib qoladi.

Fermer xo'jaligining yer uchastkasi chegaralarini naturada (joyning o'zida) belgilash hamda yer tuzish loyihalariga muvofiq fermer xo'jaligiga yer uchastkasini ijaraga berish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish yer tuzish xizmati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

(11-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(12-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

13-modda. Yerdan foydalanish

Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga egalik qilish hamda undan foydalanish borasidagi huquq va majburiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

(13-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga muvofiq foydalaniladi. Ular xususiylashtirilishi, shuningdek oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkin emas.

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagi O'RQ-1061-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2025-y., 03/25/1061/0409-son)

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalari ushbu Qonun 16-moddasi birinchi qismining **uchinchi xatboshisida** nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga bir yilgacha bo'lgan muddatga ikkilamchi ijaraga berilishi (uchinchi shaxslarga berish huquqisiz) mumkin, bundan ushbu moddaning **to'rtinchi qismida** nazarda tutilgan hollar mustasno.

(13-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-iyuldagi O'RQ-936-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.07.2024-y., 03/24/936/0522-son)

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlari yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish uchun o'n yilgacha bo'lgan muddatga qonunchilikka muvofiq ikkilamchi ijaraga (uchinchi shaxslarga berish huquqisiz) berilishi mumkin.

(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-iyuldagi O'RQ-936-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.07.2024-y., 03/24/936/0522-son)

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi qayta tashkil etilgan taqdirda, agar yer uchastkasining bo'linishi natijasida yangi tashkil topgan yer uchastkalarining o'lchami O'zbekiston Respublikasining Yer **kodeksida** nazarda tutilgan eng kam o'lchamlardan kam bo'lmasa, bo'linishi mumkin.

(13-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat fermer xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonunchilikka muvofiq ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddatiga meros bo'yicha o'tadi.

(13-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo'jaligi boshlig'i pensiya yoshiga to'lganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, oliy ta'lim tashkilotlariga ta'limning kunduzgi shakliga o'qishga qabul qilingan, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylangan yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydigan ishga qabul qilingan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ijaraga shartnomasiga o'zgartishlar kiritish orqali ushbu Qonun 4-moddasining **birinchi qismi** talablariga javob beradigan o'z oila a'zolaridan biriga qonunchilikka muvofiq ijaraga shartnomasi amal qiladigan muddatga berishga haqli.

(13-moddasining to'qqizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 6-martdagi O'RQ-1120-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.03.2026-y., 03/26/1120/0215-son)

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin fermer xo'jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga uning merosxo'ri ega bo'ladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi taraflarning kelishuviga binoan, taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda esa, sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Fermer xo'jaligi tugatilgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim.

(13-moddaning o'n birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(14-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 28-dekabrda O'RQ-138-sonli Qonuni bilan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2007-y., 52-son, 533-modda)

15-modda. Suv iste'moli

Fermer xo'jaliklarining suv iste'moli tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va hududiy qishloq xo'jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqiladigan hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan suv obyektlaridan suv olish limitlari asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(15-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

IV. FERMER XO'JALIGINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI HAMDA MOL-MULKI

16-modda. Fermer xo'jaligining huquqlari

Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:

berilgan yer uchastkasida o'z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga va ijaraga olish shartnomasiga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;

yer uchastkasini yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jalik ekinlarini oraliq ekish uchun ikkilamchi ijaraga berish (uchinchi shaxslarga berish huquqsiz);

(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-sentabrdagi O'RQ-639-sonli Qonuniga asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2020-y., 03/20/639/1342-son)

yer uchastkasining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarini yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish uchun qonunchilikka muvofiq ikkilamchi ijaraga (uchinchi shaxslarga berish huquqsiz) berish;

(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-iyuldagi O'RQ-936-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.07.2024-y., 03/24/936/0522-son)

ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni mustaqil ravishda amalga oshirish;

mahsulotni qayta ishlovchi korxonalarni va o'z mahsulotlari (ishlari, xizmatlari) iste'molchilarini mustaqil ravishda tanlash;

(16-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 9-oktabrdagi O'RQ-973-sonli Qonuniga asosan beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/973/0800-son)

xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;
yetishtirgan mahsulotini, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;
yetishtirayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga narx belgilash;

elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlarning, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yetkazib berilishi, suv xo'jaligi xizmatlari, texnik va boshqa xizmatlar ko'rsatilishi uchun shartnomalar tuzish;

(16-modda birinchi qismining yettinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 25-dekabrdagi O'RQ-240-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 555-modda)

tadbirkorlik faoliyatidan qonunchilikda belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

(16-modda birinchi qismining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

olgan daromadlarini (foydasini), bank muassasasidagi o'zining hisobvaraqlarida bo'lgan pul mablag'larini tasarruf etish;

aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar olish;

kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takror ishlab chiqarishga yo'naltirish;

kreditlar olish uchun o'z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish;

kichik hamda xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlar va preferensiyalarning barcha turlaridan foydalanish;

zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijaraga olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash;

ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni, fan va texnika yutuqlarini joriy etish;

fan-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;

(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuniga asosan o'n beshinchi va o'n oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga nisbatan huquqlari va majburiyatlarini yer uchastkasining asosiy mo'ljallangan maqsadini saqlab qolgan holda, ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijaraga berish);

(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 9-oktabrdagi O'RQ-973-sonli Qonuniga asosan yigirmanchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/973/0800-son)

o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish.

Fermer xo'jaligi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(16-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

17-modda. Fermer xo'jaligining majburiyatlari

Fermer xo'jaligi:

yer uchastkasidan qonunchilikda va ijaraga olish shartnomasida belgilangan shartlar asosida, ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga muvofiq samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlashi.

(17-moddaning birinchi qismi ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagi O'RQ-1061-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2025-y., 03/25/1061/0409-son)

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarida maqbul ekinlar ekilishini yoki tut ko'chatlari o'tqazilishini ta'minlashi;

asosiy ekinlarning rivojlanishiga salbiy ta'siri bo'lmagan hollarda bog'lar va tokzorlarning qator oralariga daromad keltirishi mumkin bo'lgan maqbul ekinlar ekilishini ta'minlashi;

(17-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 17-iyuldagi O'RQ-936-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to'rtinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.07.2024-y., 03/24/936/0522-son)

ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etishi;

yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini saqlab qolish va oshirish tadbir-choralarini ko'rishi, biznes-rejada shu maqsad uchun mablag'lar ajratilishini nazarda tutishi;

agar ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, yer uchastkasi berilgan vaqtdan e'tiboran bir yil ichida undan foydalanishga kirishishi;

(17-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

g'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etishi;

suvni tejash, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ko'rishi;

(17-modda birinchi qismining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

suv resurslaridan "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi bilan tuzilgan suv yetkazib berish va suv xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga binoan foydalanishi, shuningdek fermerlararo ichki sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini, ulardagi inshootlarni ta'mirlash hamda tiklashda ishtirok etishi, ularni texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etish;

(17-modda birinchi qismining o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarini, sohil bo'yi mintaqalari, sanitariya muhofazasi zonalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi va shartlariga rioya etishi;

yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishi;

mehnat to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini, o'z xodimlari, shu jumladan fermer xo'jaligida mehnat qiladigan oila a'zolari, vaqtincha (mavsumiy) yollanadigan fuqarolar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashi;

(17-modda birinchi qismining o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ijaraga olish shartnomasi bekor qilingan taqdirda yer uchastkasining dastlab berilgan paytdagi o'lchamlarini kamaytirmagan va boshqa shaklda zarar yetkazmagan holda yer uchastkasini ijaraga beruvchiga qaytarishi;

(17-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuniga asosan o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni belgilangan tartibda o'z vaqtida to'lashi;

qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishda agrotexnika talablariga rioya etishi;

qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan muhofaza qilinishini ta'minlashi shart

(17-modda birinchi qismining sakkizinchi—o'n to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 25-dekabrda O'RQ-240-sonli Qonuniga muvofiq sakkizinchi — o'n beshinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — O'R QHT, 2009-y., 52-son, 555-modda)

Fermer xo'jaligi zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(17-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

18-modda. Fermer xo'jaligining ustav fondi

Fermer xo'jaligining ustav fondi fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Pul, qimmatli qog'ozlar, binolar, inshootlar, boshqa mol-mulk yoki pul bilan baholanadigan mulkiy huquqlar fermer xo'jaligining ustav fondiga qo'shiladigan hissa bo'lishi mumkin. Bunda fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasi berish bo'yicha ochiq elektron tanlovda ko'rsatib o'tilgan mol-mulk, texnika va pul mablag'lari fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan fermer xo'jaligining ustav fondiga kiritiladi.

(18-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Agar fermer xo'jaligining ustav fondi shakllantirilayotganda fermer xo'jaligining boshlig'i o'z oila a'zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulkni fermer xo'jaligiga topshirayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Fermer xo'jaligining ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish fermer xo'jaligi boshlig'ining qaroriga ko'ra fermer xo'jaligi ustaviga o'zgartishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

19-modda. Fermer xo'jaligining mulk huquqi

Fermer xo'jaligining mulk huquqi davlat himoyasidadir.

Binolar, inshootlar, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, chorva mollar, parrandalarga, yetishtirgan mahsulotiga, qishloq xo'jalik texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlariga, shuningdek fermer xo'jaligining balansidagi boshqa mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi fermer xo'jaligiga qarashlidir.

Fermer xo'jaligi boshlig'ining pul va moddiy mablag'lari, tovarlarni realizatsiya qilishdan (ishlar bajarishdan, xizmatlar ko'rsatishdan) olingan daromadlar (foyda), qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlar, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar fermer xo'jaligining mol-mulkini shakllantirish manbalari bo'lishi mumkin.

(19-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo'jaligi qonunchilikda belgilangan tartibda mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, olish, sotish, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

(19-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo'jaligi tugatilayotganda faoliyatni amalga oshirish davrida o'z mablag'lari hisobiga yaratilgan mol-mulkni qonunchilikda belgilangan tartibda erkin tasarruf etishi mumkin.

(19-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

20-modda. Fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari

Fermer xo'jaligi pul muomalasini yuritish hamda pul mablag'larini saqlab turish uchun bank muassasasida hisobvaraqlar ochish va bu mablag'larni erkin tasarruf etish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining hisob-kitob varag'idan mablag'larni faqat fermer xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan yoki sudning qaroriga binoan hisobdan chiqarish mumkin.

21-modda. Fermer xo'jaligining mol-mulkini meros qilib qoldirish

Fermer xo'jaligining mol-mulki qonunchilikka muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xo'jalikda faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvoohnoma berilganligi uchun davlat boji to'lashdan ozod etiladilar.

(21-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

V. FERMER XO‘JALIGI FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI

22-modda. Fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyati

Fermer xo‘jaligi o‘z ustavida va yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga muvofiq faoliyati yo‘nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining har qanday turi bilan, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga haqli.

(22-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulot va ishlab chiqarayotgan tovarlar, bajarayotgan ishlar va ko‘rsatayotgan xizmatlar sifatiga oid normativlar va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga taalluqli hamda qonunchilikda belgilab qo‘yilgan boshqa talablar va qoidalarga rioya etishi shart.

(22-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaliklarining xo‘jalik faoliyatiga davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek ularning mansabdor shaxslari aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlarning g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining va fuqarolarning g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fermer xo‘jaligiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanadi.

(22-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaligi tashqi iqtisodiy faoliyatni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

23-modda. Fermer xo‘jaligidagi mehnat

Fermer xo‘jaligi (ish beruvchi) va uning xodimlari o‘rtasidagi mehnatga oid munosabatlar qonunchilikka muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi.

(23-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaligidagi ish tartibi xo‘jalik boshlig‘i tomonidan qonunchilikka muvofiq belgilanadi. Fermer xo‘jaligi xodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo‘jalik boshlig‘i tomonidan tashkil etiladi.

(23-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaligi xodimlarining mehnatiga haq to‘lash taraflarining kelishuviga ko‘ra pul hamda natura tarzida, qonunchilikda Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

(23-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaligining boshlig‘i va xodimlari davlat ijtimoiy sug‘urtasidan o‘tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

(23-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

24-modda. Mahsulotni fermer xo‘jaligi tomonidan realizatsiya qilish tartibi

Fermer xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar bilan xo‘jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda taraflar qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

(24-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

Fermer xo‘jaligi yetishtirayotgan mahsulotning eksportga yetkazib berilishi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

25-modda. Fermer xo‘jaliklarining birlalikdagi faoliyati

Fermer xo‘jaliklari ixtiyoriylik asosida birlashishi, mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta‘minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo‘jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo‘sinidagi va boshqa xil xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha uyushmalar hamda boshqa birlashmalarga kirishi mumkin.

Fermer xo‘jaliklarining O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga a‘zolari majburiydir.

(25-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi O‘RQ-533-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son)

26-modda. Fermer xo‘jaligini kreditlash va sug‘urtalash

Fermer xo‘jaligini ishlab chiqarish ahamiyatiga molik obyektlar qurilishi, asosiy ishlab chiqarish vositalarini olish uchun uzoq muddatli kreditlash hamda uning joriy ishlab chiqarish faoliyatini qisqa muddatli kreditlash kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligini imtiyozli kreditlash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligi o‘ziga qarashli va ijaraga olingan ishlab chiqarish vositalarining, qishloq xo‘jaligi ekinzorlari va ko‘chatzorlarining, ko‘p yillik dov-daraxtlarning, yetishtirgan mahsulotining, xom ashyoning, materiallarning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfini, tadbirkorlik xavfini, shuningdek shartnomalarni buzganlik uchun o‘zining javobgarlik xavfini ixtiyoriylik asosida sug‘urta qildiradi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlar asosida sug‘urta to‘voni (sug‘urta summasi) oladi.

(26-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

27-modda. Fermer xo‘jaligiga soliq solish

Qonunchilikka muvofiq fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar to‘laydi.

(27-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fermer xo‘jaligining foydasi soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar to‘langanidan keyin fermer xo‘jaligi boshlig‘ining tasarrufiga o‘tadi.

(27-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-yanvardagi O‘RQ-601-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son)

28-modda. Fermer xo‘jaligi faoliyatining natijalarini hisobga olish

Fermer xo‘jaligi o‘z faoliyatining natijalarini hisobga olib boradi hamda mahalliy statistika va soliq organlariga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

29-modda. Fermer xo‘jaliklarini davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash

Davlat fermer xo‘jaliklarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlaydi.

Davlat organlari fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish va mustahkamlashga ko‘maklashishlari shart.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shaharcha, qishloq va ovul fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlari doirasida qonunchilikda belgilangan tartibda:

(29-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik obyektlari bo'lmagan hududda fermer xo'jaliklari tashkil etilganida mazkur hududni birlamchi obodonlashtirishni (yo'llar, elektr uzatish va aloqa liniyalari qurishni, suv bilan ta'minlashni, gazlashtirishni, telefonlashtirishni, radiolashtirishni, yer tuzishni, yerlarni melioratsiyalashni) amalga oshiradilar;

fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari beradilar hamda ishlab chiqarish obyektlari va uy-joylar barpo etishda yordam ko'rsatadilar;

(29-moddaning uchinchi qismi uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrdagi O'RQ-355-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 41-son, 543-modda)

fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish obyektlarini muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishiga ko'maklashadilar;

foydalanilmayotgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni ularda mahsulot yetishtirishni va tovarlar ishlab chiqarishni (ishlar bajarishni, xizmatlar ko'rsatishni) tashkil etish uchun ijaraga beradilar;

fermer xo'jaliklari boshliqlari va xodimlarini tayyorlashga, qayta tayyorlashga va malakasini oshirishga ko'maklashadilar;

(29-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrdagi O'RQ-355-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2013-y., 41-son, 543-modda)

qishloq xo'jalik ekinlarining navli urug'lik hamda ko'chatlari, organik va mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalardan, kasalliklar hamda begona o'tlardan himoya qilish vositalari yetkazib berish yuzasidan davlat agrotexnika xizmati ko'rsatish tizimi orqali xizmatlar, shuningdek texnikaviy xizmat ko'rsatadilar;

qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskunalar va inventarlarni lizing asosida sotib olishga ko'maklashadilar;

zotdor chorva mollar va parrandalar, shuningdek omixta yem sotib olishda ko'maklashadilar;

fermer xo'jaliklarining chorva mollariga veterinariya xizmati ko'rsatilishi uchun zarur sharoitlar yaratib beradilar;

(29-modda uchinchi qismining o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrdagi O'RQ-416-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 52-son, 597-modda)

fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotini tayyorlash va realizatsiya qilishda ko'maklashadilar;

noqishloq xo'jalik yo'nalishidagi ishlab chiqarishlarni tashkil etayotgan fermerlarni rag'batlantiradilar

konsalting, axborot yo'sinidagi va boshqa xil xizmatlar ko'rsatadilar.

Xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari fermer xo'jaliklariga ham tatbiq etiladi.

(29-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

30-modda. Fermer xo'jaligi faoliyatini tekshirish cheklanganligi

Fermer xo'jaligi faoliyatini tekshirish (moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishlar bundan mustasno), yer to'g'risidagi qonunchilik buzilganligiga dalillar bo'lgan hollarda, ijaraga olish shartnomasiga muvofiq ijaraga berilgan yer uchastkasidan faqat belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish masalalari bo'yicha, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(30-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

(30-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrdagi O'RQ-646-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son)

(30-moddaning uchinchi — beshinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrdagi O‘RQ-646-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son)

31-modda. Fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish

Fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(31-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining yer uchastkalarini ijaraga olish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi o‘z rahbari tomonidan uning tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish orqali qayta tashkil etilishi mumkin.

(31-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O‘RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

32-modda. Fermer xo‘jaligini tugatish asoslari

Fermer xo‘jaligi quyidagi hollarda tugatiladi:

fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkasi berish bo‘yicha ochiq elektron tanlovda fermer xo‘jaligi boshlig‘i tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan mol-mulk, texnika va pul mablag‘lari ustav fondiga kiritilmaganda;

(32-moddaning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O‘RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o‘tkazilgan paytdan e’tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda;

(32-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-dekabrdagi O‘RQ-592-sonli Qonuniga asosan uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son — 2020-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganida;

fermer xo‘jaligi bankrot deb topilganda, shu jumladan moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar bilan hisob-kitob muntazam ravishda amalga oshirilmaganida;

fermer xo‘jaligining boshlig‘i vafot etib, xo‘jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi merosxo‘r bo‘lmasa;

fermer xo‘jaligining yer uchastkalarini ijaraga olish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda, bundan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi o‘z rahbari tomonidan fermer xo‘jaligining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish orqali qayta tashkil etilgan hollar mustasno.

(32-moddaning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O‘RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

33-modda. Fermer xo‘jaligini tugatish tartibi

Fermer xo‘jaligi:

fermer xo‘jaligi boshlig‘ining qaroriga binoan;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan;

(33-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o‘tkazilgan paytdan e’tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organing qaroriga binoan tugatiladi.

(33-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-dekabrdagi O‘RQ-592-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son — 2020-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Fermer xo‘jaligini tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(33-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

34-modda. Nizolarni hal etish

Fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi nizolar qonunchilikka muvofiq hal etiladi.

(34-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

35-modda. Fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha javobgarlik

Fermer xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan moddiy-texnika resurslari yetkazib berilganligi va xizmatlar ko'rsatilganligi uchun o'z vaqtida haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'z mol-mulki bilan javob beradi.

(35-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 22-oktabrdagi O'RQ-981-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son)

Fermer xo'jaligining boshlig'i fermer xo'jaligining mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Xodimning mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan uning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan fermer xo'jaligida mablag' bo'lmagan yoxud yetarli bo'lmagan taqdirda, undirilishi lozim bo'lgan summalar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan to'lanadi.

(35-moddaning birinchi — uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

36-modda. Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

(36-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 40-41-son, 433-modda; 2006-y., 12-13-son, 100-modda; 2007-y., 52-son, 533-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda; 2009-y., 52-son, 555-modda; 2011-y., 37-son, 374-modda; 2012-y., 37-son, 421-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 2016-y., 52-son, 597-modda; 2017-y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son, 21.12.2018-y., 03/18/506/2356-son, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son; 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son, 30.09.2020-y., 03/20/639/1342-son, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 18.07.2024-y., 03/24/936/0522-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 10.10.2024-y., 03/24/973/0800-son; 24.10.2024-y., 03/24/981/0841-son; 05.05.2025-y., 03/25/1061/0409-son; 07.03.2026-y., 03/26/1120/0215-son)